

O'QUVCHILARDA IBORALAR USTIDA ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR METOD VA USULLAR

METHODS AND METHODS OF FORMATION OF SKILLS TO WORK ON STUDENTS

Soliyeva Sevd

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15600844>

Soliyeva Sevd

Student of Tashkent State

University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazeologiya haqida umumiy ma'lumlar berilgan. Shu bilan birga o'quvchilarda iboralar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodlar tasnif etilgan. Maqola umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fanidan dars beruvchi o'qituvchilar hamda til o'rganish metodikasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun foydalidir.

Annotation: This article provides a general review of frazeology. At the same time, methods are classified as students to form the skills to work on the students. The article is useful for secondary schools for teachers who teach the mother tongue and literature teachers and methods of language learning.

Kalit so'zlar: frazeologiya, ibora, metod, usul, ko'nikma, media savodxonlik, nutq madaniyati.

Keywords: phraseology, phrases, methods, methods, skills, media literacy, speech culture.

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi iboralar haqida ma'lumot beradi. Iboralar ikki va undan ortiq so'zlar birlashuvidan tarkib topgan, ko'chma ma'noli turg'un qurilma hisoblanadi. Ibora *frazema, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma* atamallari bilan ham yuritiladi.

Iboralar tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi iboralar: *ko'ngli bo'sh, enka-tinkasini chiqarmoq, jig'iga tegmoq, bel bog'lamoq, kir izlamoq, terisiga sig'may ketmoq* va h.k. Gap tipidagi ibora "gap kengaytiruvchisi+kesim" qolipi mahsuli: *istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, ko'ngli ochiq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, po'konidan el o'tmagan, tepa sochi tikka bo'lmoq* va h.k.

Odatda, iboraning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki ibora va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida *yoqasini ushlamoq* iborasi bilan *hayron bo'lmoq* leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur ibora «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq» bo'lsa, *hayron bo'lmoq* leksemasi "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq" sememasiga ega. Har

ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati aks etgan. Biroq ibora ma'nosida "o'ta darajada" va "so'zlashuv uslubiga xos", "bo'yoqdor" semalariga egaligi bilan "hayron bo'lmoq" leksemasidan farqlanadi. Demak, iboralarining ko'pincha, semantik qatlamida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Masalan, *hayron bo'lmoq* leksemasi umumuslubiy va bo'yoqsiz. Shuning o'ziyoq barcha uslubda qo'llanish imkoniga egaligini va turli "bo'yoqlar" bilan ishlatish mumkinligini ko'rsatadi.

Iboralar tilning eng muhim tasviriy uslubiy vositalaridan biridir. Ular nutq uslublarida turli xil vazifalarni bajaradi. Xususan, ilmiy va rasmiy uslublarda ko'pincha muayyan tushunchalarni nomlash uchun qo'llanadi. Masalan, qo'l qo'ymoq, xulosaga kelmoq, qarshi chiqmoq, ovoz bermoq, qo'l ko'tarmoq kabi iboralar bunga misol bo'la oladi.

Iboralarining aksariyarti obrazli tafakkur mahsuli bo'lib, kuchli ko'chma ma'no ifodasi bilan, yorqin emotsional-ekspressivligi bilan tilda yashaydi. Masalan: tomdan tarasha tushganday, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, oyog'ini qo'lga olmoq, o'pkasini qo'ltiqarmoq, chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmoq kabi. Badiiy va publitsistik, shuningdek, so'zlashuv uslublarida iboralar xilma-xil tasviriy-uslubiy vazifalarni bajaradi, bunga iboralaridagi mavjud rang-barang uslubiy bo'yoq imkoniyat yaratadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iboralar obrazli va bo'yoqdor bo'lganligi sababli, ular nutqimizni ma'noli va ta'sirchan qilishga ko'maklashadi. Iboralar inson hissiyotini aniqroq va chuqurroq ifodalashga xizmat qiladi.

Iboralarni maktab ta'limida chuqur o'rgatish o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirishga yordam beradi. Iboralar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini emotsional va obrazli ifodalashni o'rganadilar. Bu esa og'zaki va yozma nutqni yanada boy, mazmunli va e'tiborga loyiq qiladi. Ayniqsa, badiiy asarlarni tahlil qilishda bu ko'nikma juda foydali sanaladi. Ko'plab badiiy asar matnlarida iboralar keng qo'llaniladi. Agar o'quvchilar iboralar ma'nosi va uslubiy xususiyatlarini tushunmasa, yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishmasa, asar mazmunini, maqsadini anglay olishda to'siqlarga duch kelishadi. Bundan tashqari iboralarini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar insho, bayon va esse yozish jarayonlarini qiyinchiliksiz, mazmunga boy, va chiroyli tarzda bajara olishadi. Bu esa ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarga iboralarini chuqurroq o'rgatish ularning til ma'daniyati, nutq boyligini va estetik didini rivojlantiradi. Bu nafaqat ona tili va adabiyot fanlarida, balki hayotning turli sohalarida to'g'ri, mazmunli va ta'sirchan muloqot qilishga zamin yaratadi. O'quvchilarda iboralarini o'qitishda turli metod va usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Quyida visual klaster orqali iboralarini o'rganish va "bir rasmga uch ibora" metodlari haqida bayon etiladi.

Visual klaster orqali iboralarini o'rganish metodi. Bu metoddan maqsad o'quvchlarning iboralar mavzusi bo'yicha guruhlay olish, ularning ma'no doirasini anglash, kontekstda to'g'ri qo'llash va ijodiy fikrlashini qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Metodni bosqichma bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1-bosqich. Asosiy klaster markazi yaratish. O'quvchilar guruhlariga bo'linishadi. Guruhlarga asosiy mavzular beriladi. Ya'ni turli mavzular orasidan biri tanlab olinadi.

Masalan: "Tilga oid iboralar". O'quvchilar shu markazdan tarqalgan klaster shoxchalariga mavzu doirasidagi iboralar joylashtib chiqiladi.

-til biriktirmoq;

-tili bormadi;

- tili boshqa dili boshqa;
- tili uzun bo'lmoq;
- tilini tishlamoq;
- tilining uchida turmoq;
- tilga ko'chmoq;
- tili o'tkir bo'lmoq.

Har bir ibora ma'nosi lug'atdan ko'rib chiqiladi. Badiiy matnlarda ular ishlatilgan qismlaridan parchalar qidirilib, joylashtiriladi. Iboralar anglatgan his-tuyg'ulari aniqlaniladi (hajv, kinoya, hayrat). So'ngra shu iboraga qarama-qarshi ma'no ifodalovchi iboralar keltiriladi.

O'quvchilar jamlashgan bu ma'lumotlarini qog'ozga xarita ko'rinishiga tushirishadi. Bundan tashqari onlayn ko'rinishda ham taqdim etishlari mumkin. O'quvchilar Canva, Miro, Jamboard ilovalaridan ko'mak olishlari mumkin bo'ladi.

2-bosqich. Klasterlarni taqqoslash. Guruhlar tuzgan klasterlar jamlanadi. Ular turli mavzuda yoritilgan. Misollar: "ko'z bilan bog'liq iboralar", "quvonchni, shodlikni ifodalovchi iboralar", "qo'l harakatlari bilan bog'liq iboralar".

So'ngra guruhlar klasterlari jamlanib taqdimot ko'rinishiga keltiriladi. Taqdimotda klasterlar taqqoslaniladi. O'xshash va farqli tomonlari, yutuqlari va kamchiliklari muhokama qilinadi. Guruhlarda o'zaro bir-birlariga baho berish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

3-bosqich. Ijodiy qo'llash, mustahkamlash. O'quvchilar klasterdan o'rgangan 2-3 ta iborani ishlatib, mini hikoya yoki diolog tuzishlari kerak bo'ladi. Bundan tashqari Instagram uchun post yoki meme yasashlari ham mumkin.

Metodda ona tilining adabiyot bilan integratsiyasini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari o'quvchilar media savodxonligini rivojlanishida ushbu metod ahamiyatga egadir.

"Bir rasmga uch ibora" metodi. Bu metoddan maqsad o'quvchilarda iboralarni voqealikni tushunish, turli vaziyatlarga munosabat bildirish olishda iboralardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari o'quvchilarda tasviriy fikrlash va ifodaviy nutqni rivojlantirish ham ko'zlangan maqsadlardan biridir. Metod bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

1-bosqich. O'qituvchi tanlangan rasmni elektron xat taxtasi orqali o'quvchilarga namoyish etadi. Tanlangan rasm obrazli, bir vaziyatni taqdim etadigan ko'rinishda bo'lishi lozim. Masalan, bir inson shoshayotgani yoki bir insonning suhbatdoshiga nisbatan yomon muomalada bo'layotgani tasvirlangan rasmlardan foydalanish mumkin.

2-bosqich. O'quvchilar rasmga asoslangan holda 3 ta ibora keltirishadi. Fikrlar yozma va og'zaki holatda qabul qilinadi.

3-bosqich. Fikrini bildirgan har bir o'quvchi nima uchun aynan shu iboralarni keltirganligini izohlaydi. Bunda o'quvchilarning tafakkuri rivojlanib, kritik fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Ushbu metod ko'rish+fikrlash+so'zlash asosida ishlaydi. Shu o'rinda kognitiv psixolog R.Mayerning fikrlariga e'tibor qaratamiz: "rasm va tilni birgalikda qo'llash bilimni saqlash va tezkor chiqarish retrieval jarayonini kuchaytiradi". O'quvchilar iboralarni o'qiydi, tasavvur qiladi, balki tengdoshlari fikrini ham eshitadi. Bu jarayon uzoq muddatli xotiraga joylashadi. Natijada o'quvchi hayoti davomida bu bilimdan faol qo'llay oladi.

Xulosa: Nutqni jozibali ta'sirchan qilish vazifasi iboralarga yuklanganligi bois bu mavzu katta ahamiyatga molik hisoblanadi. Maktab ta'limida iboralarni yaxshi o'qitish o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi va nutq madaniyatini oshiradi. Ular o'z fikrlarini aniq, ravon va

ta'sirli ifoda eta olishni o'rganadilar. Bu esa darslarda faol ishtirok etish va yozma ishlarning sifatini yaxshilashga yordam beradi. Natijada o'quvchilarning umumiy bilim saviyasi va muloqot madaniyati rivojlanadi. Yetuk kadrlar tarbiyasida maktab ta'limidagi har bir fanga, har bir mavzuga mas'uliyat bilan yondashish pedagoglar zimmasidagi vazifa hisoblanadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili// "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2013. 330-b.
2. Nurbayeva X. Frazeologiya mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish// <https://cyberleninka.ru/article/n/>
3. Sayfullayeva R. "Hozirgi o'zbek adabiy tili//Toshkent-2010. 172-b.
4. Akamova, N. M. (2018). Problems encountered in learning a foreign language. *Вопросы науки и образования*, (29), 86-87.
5. Турсунова, Ф. Г. (2018). Использование монолога при создании сатирических персонажей (на примере произведений Абдуллы Кодири). *Достижения науки и образования*, (15 (37)), 52-54.
6. O'zbek tili frazeologik lug'ati// G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uy// Toshkent-2022.